

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AQLIY HAMDA AXLOQIY TARBIYANI UYG'UN HOLDA SHAKLLANTIRISH METODLARI

Matqurbonova Sevara Ikromjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: sevaramatqurbonova8@gmail.com

Tel: +998-94-535-37-67

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarida uyg'un holda shakllantirilishi lozim bo'lgan aqliy hamda axloqiy tarbiya haqida batafsil ma'lumotlar beriladi hamda o'quvchilarga ta'lim jarayonida mustaqil fikr yuritishni, jamoa bilan ahil munosabatda bo'lishni, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini o'rgatuvchi metodlar namuna sifatida keltiriladi.*

Kirish so'zlar: *barkamol avlod, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, o'z-o'zini nazorat qilish, ijobiy fazilatlar, intizom.*

Аннотация: *В статье даны подробные сведения о духовно-нравственном воспитании, которое должно быть гармонично сформировано у учащихся начальных классов, а также учит учащихся самостоятельно мыслить, иметь гармоничные отношения с коллективом, осваивать методы, обучающие навыкам применения знаний в практика приведена в качестве примера.*

Ключевые слова: *совершенное поколение, умственное воспитание, нравственное воспитание, самоконтроль, положительные качества, дисциплина.*

Abstract: *The article provides detailed information about spiritual and moral education, which should be harmoniously formed in primary school students, and also teaches students to think independently, have harmonious relationships with the team, master methods that teach the skills of applying knowledge in practice is given as an example.*

Keywords: *perfect generation, mental education, moral education, self-control, positive qualities, discipline.*

Har bir yurt kelajagi unda voyaga yetayotgan yosh avlodning aqliy hamda axloqiy salohiyatiga bog'liq desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi. SHunday ekan yurt taraqqiyotini qayg'urgan xalq shu davlatda voyaga yetayotgan har bir yosh avlodga befarq bo'lmasligi tabiiy holat. Bizning yurtimizda ham yoshlarning zamonaviy fan texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim va tarbiya olishlari uchun barcha sharoitlar mavjud. Bu xususida mamlakatimiz Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoyev o'z fikrlarini quyidagicha bayon etgan: Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi “Bugun men yoshlar uchun

nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima ish qilishim kerak?” degan savollarga javob beradigan, shunday e’tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi.

Mamlakat yoshlari uchun yaratilayotgan har bir imkoniyat ularning kelajakda barkamol inson bo’lib yetishishida o’z hissasini qo’shmasdan qolmaydi. Yoshlarning bilimli, salohiyatli, ziyrak, mulohazakor, ongli ravishda o’z faoliyatini yo’lga qo’ya oladigan mustaqil shaxs bo’lib shakllanishida tarbiyaning ro’li beqiyos va tasvirlab bo’lmas darajada kuchlidir. Bir so’z bilan aytganda, har qanday kuchli bilim va aql-idrokning yuzaga kelishida mukammal tarbiya mustahkam poydevor vazifasini o’taydi.

Yoshlarda yetuk aqliy va axloqiy fazilatlarni shakllantirishda kichik maktab yosh davri alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab yosh davri yetti yoshdan o’n bir yoshgacha bo’lgan bolalarni o’z ichiga qamrab oladi. Bu esa bolalarda asosiy ta’lim va tarbiya boshlang’ich sinfda o’qib yurgan paytida shakllanishini ko’rsatadi. Shakllanib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini nafaqat boshlang’ich sinf o’qituvchilari balki, barcha oila a’zolari, do’stlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiat va hokozolar boshqarib boradi. Qaysidir ma’noda har bir inson tarbiyasining shakllanishida butun insoniyat xoh ijobiy xoh salbiy ta’sirini o’tkazishi inkor etib bo’lmas haqiqatga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalari asrida yashar ekanmiz, dunyoning u chekkasida yashayotgan inson dunyoning bu chekkasida yashayotgan insonga o’zining g’oyaviy ta’sirini o’tkaza oladi. Shunday ekan, yoshlarimiz tarbiyasida turli xil og’ishlar vujudga kelsa, yurtimizda ilm-fan rivoji yanada ortda qolib ketishiga sababchi bo’ladimi?

Bu xususida olimlarning bir qancha ilmiy qarashlari mavjud bo’lib, ular yoshlarda aqliy tarbiya va axloqiy tarbiyaning qay biri ustunlik qilishi haqida bir qancha g’oyalarni ilgari surganlar. Ularning fikrlarini umumlashtirgan holda tahlil qiladigan bo’lsak, bolalarda eng avvalo, axloqiy keyin esa aqliy tarbiya shakllanadi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Axloqiy tarbiya- ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo’lib, bu tartib-qoidalar xatti-harakatni tartibga solish vazifasini bajaradi. U bizning kundalik ishlarimizga va ongimizga faol ta’sir ko’rsatib, jamiyat nomidan yaxshilik bilan yomonlik, zulm, adolat bilan adolatsizlik o’rtasidagi va insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul man etilmaydigan va man etiladigan ishlarni, xatti- harakatlarni belgilab beradi.[1]

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi bolalarda axloqiy tarbiyani mukammal tarzda shakllantirmoqchi bo’lsa, eng avvalo uning o’zi bir qancha axloqiy fazilatlarga ega bo’lishi talab etiladi. Bolalar ongiga axloqiy tarbiyani faqatgina so’z orqali singdirib bo’lmaydi. O’qituvchi o’quvchilariga tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan biror narsani o’rgatmoqchimi, eng avvalo uning o’zi o’sha jabhada namuna bo’la olishi kerak. Zero, buyuk mutafakkirlar:”Kimgadir tarbiya bermoqchi bo’lsang, birinchi navbatda o’zing tarbiyali bo’l”,- deya bejiz ta’kidlab o’tishmagan. Bolalarga o’z xulqini axloqiy jihatdan baholashni o’rgatish tarbiyani shakllantirishning birinchi bosqichidir. Ya’ni bola har bir

qilgan harakatining, gapirgan gapining to'g'ri yoki noto'g'riligini o'zining aqliy salohiyati yetkunicha tahlil qila olishi darkor. Buni biz o'z-o'zini nazorat qilish deb ataymiz.

O'z-o'zini nazorat qilish- shaxsning o'z holatini tartibga solib, uni boshqarib borishi.[2]

O'quvchilarga axloqiy hamda aqliy tarbiya berishda xilma-xil metodlar mavjud bo'lib, ular bolalarda ijobiy fazilatlar shakllanishining bir necha barobar tezlashishiga yordam beradi.

Birinchi metod - sinfda o'quvchilar o'rtasida ahil jamoani shakllantira olishdir. Bolalarning bilimlarni yetarli darajada o'zlashtirishiga ahil jamoa juda katta ijobiy ta'sir o'tkazadi. Qolaversa, o'quvchilar bir-biri bilan ahil bo'lsa sinf xonasida yuzaga keladigan turli xil noo'rin janjallarning oldi olingan hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchi bolalarga ahillik, uyushqoqlik, do'stlar o'rtasidagi inoqlik haqidagi bir necha ertak yoki ta'sirli hikoyalarni bolalar qalbini jumbushga keltiradigan holda o'qib berish yoki vidiorolik shaklida ko'rsatishning o'zi kifoya qiladi. Bu metodni qo'llash davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining oddiy narsalardan ham tez ta'sirlanishi juda katta yordam beradi.

Ikkinchi metod- bolalarda o'ziga nisbatan bo'lgan ishonchni oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Bunda dars davomida bolalarga "siz eng namunali o'quvchisiz, siz eng tarbiyali o'quvchisiz, chiroyli axloqingiz uchun ona-onangizga tashakkur" zamiridagi so'zlar stikerlarga yozilgan holda taqdim qilinadi. Bu bolalar uchun eng katta motivatsiya hisoblanadi va bolalar yanada ilmi va tarbiyali bo'lishga intiladilar. Bundan tashqari bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch kuchli bo'lsa, ular nazariyada o'rgangan bilimlarini amaliyotda bemalol qo'llay oladilar.

Uchinchi metod- bunga ko'ra o'qituvchi tomonidan doskaga ikkita bir xil tabiat manzarasining rasmi ilinadi, faqat bittasida axlatlar har joyga sochilib yotgan, tartibsiz holatda, ikkinchisida esa axlatlar bir chekkaga yig'ilgan holatda bo'ladi. Ushbu holatni esa o'qituvchi quyidagicha izohlashi mumkin: "Bolalar, bu axlat sizniki emas, ammo bu Vatan sizniki, shunday ekan biz yurtimizni, qolaversa, kichik Vatanimiz bo'lgan sinf xonamizni ham har doim toza, ozoda holatda saqlashimiz kerak". Bunday ta'sirli manzaradan so'ng o'quvchilar har doim ozoda bo'lishga harakat qiladilar.

Bulardan tashqari bolalarda mehnatni sevish, o'zaro hurmat, mulkni ehtiyot qilish, rostgo'ylik, sofdillik, kamtarlik kabi xislatlarni shakllantirish ham ularning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchilarda mustahkam intizom bo'lishi darkor. Buni Komenskiy quyidagicha izohlagan: "Intizomsiz maktab – suvsiz tegirmondur". O'quvchilarda intizom mukammal tarzda shakllangan bo'lsagina, ularda ilmga bo'lgan qiziqish, hurmat paydo bo'lishi mumkin. Chunki, tarbiyaviy xislatga ega bo'lmagan shaxs bilim egallashi mumkin, ammo hech qachon haqiqiy ilm egasi bo'la olmaydi. O'zida axloqiy tarbiyani shakllantirmagan odam olgan bilimidan to'g'ri foydalanishni ham bilmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, yuqorida keltirilgan metodlar , guruhli ishlash va nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash singari yondashuvlar o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan. Natijada bolalar nafaqat bilim olishadi, balki jamiyatda

birgalikda yashash, hurmat va mas'uliyat hissini o'rganishga ham erishadilar. Bir so'z bilan aytganda aqliy va axloqiy tarbiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish kelajak avlodni yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – Toshkent.: Sharq, 2001. 26-bet.
2. Ibragimov X., Yo'ldoshev U., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. 132-bet.
3. Asqarova O', Xayitboyev M., Nishonov M. Pedagogika. – T.: Talqin, 2008.
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/diplom-ishlar/pedagogik-psixologiya/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarida-aqliy-tarbiyani-shakllantirish-yo-llari-bmi-1>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-sinf-o-quvchilarini-axloqiy-tarbiyalashda-xalq-ogzaki-ijodidan-foydalanish/viewer>
6. [file:///C:/Users/lenovo/Downloads/2722%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/lenovo/Downloads/2722%20(1).pdf)